



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

D.Kadirova

*Qo'qon DU,
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchsi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini kreativ pedagogik yondashuv asosida shakllantirish masalalari yoritilgan. Muallif maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili asosida sohaning dolzarb vazifalarini aniqlaydi, innovatsion fikrlashning psixologik-pedagogik mohiyatini ochib beradi va uni shakllantirishning uchta o'zaro bog'liq sharti — qiziquvchanlik va ijodiy tashabbuskorlik, kreativ tafakkurning amaliy rivojlanganligi hamda emotsional-motivatsion muvofiqlik — asosida tavsiflaydi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida an'anaviy, reproduktiv yondashuvning ustunligi bolalarning mustaqil va ijodiy fikrlash imkoniyatlarini cheklayotganini ko'rsatadi hamda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini kreativ metodika asosida takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, innovatsion fikrlash, kreativlik, kreativ yondashuv, pedagogik texnologiya, bola shaxsi, kompetensiya, DTS.

EFFECTIVE METHODS OF FORMING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN BASED ON A CREATIVE APPROACH

Abstract: The article examines the formation of innovative thinking skills in preschool children through a creative pedagogical approach. Based on an analysis of the normative-legal documents regulating the development of the preschool education system, the author identifies the field's current priorities, reveals the psychological-pedagogical essence of innovative thinking, and describes it through three interrelated conditions: curiosity and creative initiative, the practical development of creative thinking, and the coordination of emotional-motivational needs. The findings show that the prevalence of traditional, reproductive approaches in preschool institutions restricts children's opportunities for independent and creative thinking, and substantiate the need to improve teachers' professional readiness on the basis of creative methodology.

Keywords: preschool education, innovative thinking, creativity, creative approach, pedagogical technology, child's personality, competence, state educational standard.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi, ilm-fan yutuqlarining kengayishi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi shaxs tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar hajmining muttasil ortib borishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llash, mustaqil va ijodiy fikrlash, muammolarga yangicha yondashish hamda innovatsion g'oyalarni ilgari surish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shaxs rivojlanishining eng ilk bosqichi — maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirish zarurati dolzarblashib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan izchil davlat siyosati olib borilmoqda. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda bolalarga ta'lim-tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda ularni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da bolalarning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash, ta'lim muhitining innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish vazifalari nazarda tutilgan [5]. Ushbu me'yoriy hujjatlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydigan asosiy omillar hisoblanadi [2; 3; 4; 6; 7].

Tadqiqotning maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini kreativ va integratsion pedagogik yondashuv asosida shakllantirish jarayonining nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalar taklif etishdan iborat.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlari sifati va samaradorligini oshirish maqsadida moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash darajasini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda [2; 3; 4]. Bu boradagi islohotlar bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion fikrlash tushunchasi pedagogik-psixologik adabiyotlarda ko'pincha kreativlik, ijodiy tafakkur va tanqidiy fikrlash tushunchalari bilan uzviy bog'liqlikda talqin etiladi. Kreativlik pedagogikada qandaydir yangi, betakror narsa yaratish, badiiy shakl hosil qilish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon sifatida izohlanadi. Innovatsion fikrlash esa ushbu ijodiy salohiyatni amaliy muammolarni hal etishga, yangi g'oyalarni izlab topishga va noan'anaviy yechimlar taklif etishga yo'naltiruvchi kognitiv-faoliyat ko'nikmasi sifatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha yosh davri — bu barcha psixik jarayonlarning bir-birini to'ldirgan holda birgalikda shakllanadigan davri bo'lib, ularning sun'iy ravishda bir-biridan ajratilishi pedagogik samaradorlikni sezilarli darajada pasaytiradi. Shu bois innovatsion fikrlashni shakllantirish jarayonini bola shaxsining yaxlit rivojlanish mantig'idan kelib chiqib,

bir qator o'zaro bog'liq psixologik-pedagogik komponentlar uyg'unligi asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'limda kreativlik va innovatsion fikrlash muammosi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. B.X.Xodjayev pedagog kadrlarning innovatsion salohiyati tarkibini tahlil etar ekan, kreativ tarkibiy qism pedagoglarda ijodiy yondashuvning mavjudligi hamda muammoli vaziyatlarda nostandart fikrlay olish ko'nikmalarini belgilashini ta'kidlaydi [9]. M.M.Musurmonkulovning fikricha, pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning kasbiy faoliyatini sifatli tashkil etishga zamin yaratadi va o'quv mashg'ulotlarini davlat ta'lim standarti talablariga moslashtirilgan holda ijodiy tashkil etish imkonini beradi [10]. U.Abdusattarova bolalarda ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishda o'yin, muammoli vaziyat va individual yondashuvning samaradorligini, shuningdek psixologik qo'llab-quvvatlashning muhim omil ekanligini asoslaydi [11]. M.N.Xushnazarova esa tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish masalalarini tadqiq etib, kreativ metodikani qo'llashga tayyorgarlik darajasining ta'lim sifatiga bevosita ta'sirini ko'rsatib bergan [12]. Yuqoridagi tadqiqotlar innovatsion fikrlashni shakllantirish muammosining ko'p qirrali ekanligini va uni kompleks pedagogik-psixologik yondashuv asosida o'rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Xorijiy tadqiqotchilar ham bolalarda ijodiy va innovatsion fikrlashni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, ilk yoshdagi bolalarning tabiiy qiziquvchanligi va o'yin orqali bilish faoliyati ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning eng samarali vositasi ekanligi, shuningdek loyihaviy yondashuv va erkin o'yin faoliyatining bolalar tafakkurini kengaytirishdagi o'rni ko'plab ilmiy manbalarda asoslab berilgan. Bunday qarashlar respublikamiz sharoitida olib borilayotgan tadqiqot natijalari bilan uyg'un bo'lib, milliy ta'lim tizimini xalqaro ilg'or tajriba bilan boyitish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish, kuzatish, pedagogik tajriba materiallarini umumlashtirish hamda qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot bazasi sifatida bir qator maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 5–7 yoshli tarbiyalanuvchilari bilan olib borilgan kuzatuvlar, shuningdek tarbiyachi-pedagoglarning faoliyatini o'rganish natijalari xizmat qildi.

Maktabgacha ta'lim bolalarning qiziqishlari, qobiliyatlari, individual psixologik-fiziologik xususiyatlari hamda madaniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz pedagogik jarayon hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlar bolani passiv ma'lumot qabul qiluvchi emas, balki faol, ijodkor va mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lib, faoliyat, tajriba, muloqot va innovatsion muhitga asoslanadi.

Psixologiya va pedagogika sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 3–7 yoshli bolalar tafakkurida innovatsion fikrlashning rivojlanishi juda tez va sezilarli namoyon bo'ladi, chunki miya plastikliги yuqori bo'lgan bu davrda ijodiy tafakkurni maqsadli rivojlantirish alohida samara beradi. Agar ushbu imkoniyatdan foydalanilmasa, keyinchalik innovatsion fikrlashni shakllantirish ancha murakkablashadi.

Olib borilgan kuzatuv va tahlillar natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan kreativ pedagogik yondashuvlarning yetarli darajada samarali tashkil etilmayotganini ko'rsatdi. Xususan, amaldagi ta'lim mazmunida reproduktiv faoliyat elementlarining ustunligi, ya'ni bolalarning asosan tayyor bilim va ma'lumotlarni o'zlashtirishga yo'naltirilganligi ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish imkoniyatlarini cheklamoqda. Shuningdek, ko'p hollarda tarbiyachi-pedagoglar divergent fikrlashni rag'batlantiruvchi o'yinlar, muammoli vaziyatlar, dizayn-tafakkur elementlari, STEAM yoki loyihaviy ta'lim kabi zamonaviy metodlardan yetarlicha foydalana olmaydilar, bu esa ta'lim jarayonida "kreativ muhit"ning yetishmasligiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bolada innovatsion fikrlashning shakllanishi quyidagi uchta psixologik shart bir vaqtda ta'minlangandagina samarali kechadi:

- 1) qiziquvchanlik va ijodiy tashabbuskorlikning faollashganligi — bolaning ichki motivatsion tayyorgarlik holati;
- 2) kreativ tafakkurning amaliy jihatdan rivojlanganligi — tasavvurga tayangan holda muqobil yechimlar topish va ijodiy yondasha olish qobiliyati;
- 3) emotsional-harakat va motivatsion ehtiyojlarning o'zaro muvofiqlashganligi — bolaning ichki hissiy kechinmalari keyingi faoliyatini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'lishi.

Ushbu shartlar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi: qiziquvchanlik bolani yangilikka intilishga undaydi, kreativ tafakkur ushbu yangilikni ichki tasavvur va ijodiy natijaga aylantirish imkonini beradi, emotsional-motivatsion muhit esa jarayonning barqaror va ixtiyoriy faollik kasb etishini ta'minlaydi. Shu bois maktabgacha ta'lim amaliyotida innovatsion fikrlashni faqat alohida ko'nikma sifatida emas, balki bolaning yaxlit psixologik rivojlanishi bilan uzviy bog'liq kompleks jarayon sifatida ko'rib chiqish zarur.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy va bilish kompetensiyalarini egallashi ustuvor vazifa sifatida belgilangan [8]. Ushbu kompetensiyalar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularning innovatsion faolligini oshirish hamda kreativ va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida muhim pedagogik omil vazifasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik faoliyatda haddan tashqari nazorat yoki majburlashga asoslangan munosabatlarning qo'llanilishi bolalarda psixologik noqulaylikni yuzaga keltirib, ularning ijtimoiy faolligi va o'ziga ishonchining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois maktabgacha ta'lim jarayonini demokratik, hamkorlikka asoslangan va bolalarning faol ishtirokini ta'minlovchi kreativ pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish zarur.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan kuzatuvlar tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarining rivojlanish darajasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Kreativ metodikadan faol foydalanadigan pedagoglar rahbarligidagi guruhlarda bolalarning muammoli vaziyatlarga nisbatan mustaqil yechim izlash faolligi, savol berish tashabbuskorligi hamda o'yin faoliyatida noan'anaviy g'oyalarni ilgari surish

ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo'lgani qayd etildi. Bu esa pedagogning kasbiy-ijodiy salohiyati bolalar innovatsion fikrlashini rivojlantirishning hal qiluvchi omillaridan biri ekanligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan metod va vositalarning xilma-xilligi ham muhim ahamiyatga ega. Divergent fikrlashni rag'batlantiruvchi didaktik o'yinlar, muammoli-izlanuvchanlik xarakteridagi topshiriqlar, dizayn-tafakkur elementlariga asoslangan mashg'ulotlar, shuningdek STEAM va loyihaviy ta'lim texnologiyalari bolalarning tasavvur doirasini kengaytirish, ularda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini uyg'unlikda shakllantirish imkonini beradi. Bunday texnologiyalarni tizimli tatbiq etish, ayniqsa 5–7 yoshli bolalar bilan ishlashda, ularni maktab ta'limiga ham intellektual, ham psixologik jihatdan puxta tayyorlashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1) maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchta o'zaro bog'liq psixologik shart — qiziquvchanlik va tashabbuskorlik, kreativ tafakkurning amaliy rivojlanganligi hamda emotsional-motivatsion muvofiqlik asosida samarali kechadi;

2) hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida reproduktiv faoliyat elementlarining ustunligi bolalarning mustaqil va ijodiy fikrlash imkoniyatlarini cheklamoqda, shu sababli ta'lim mazmunini kreativ pedagogik texnologiyalar asosida yangilash zarur;

3) tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini divergent fikrlashni rag'batlantiruvchi o'yinlar, muammoli vaziyatlar, dizayn-tafakkur va loyihaviy ta'lim elementlaridan foydalanish ko'nikmalari asosida takomillashtirish lozim;

4) maktabgacha ta'lim jarayonini demokratik, hamkorlikka asoslangan muhitda tashkil etish bolalarning innovatsion salohiyati va ijtimoiy-emotsional barqarorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini kreativ yondashuv asosida shakllantirish muammosini yanada chuqur o'rganish, uni amaliyotga tatbiq etishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va metodik vositalarini ishlab chiqish davr talabidir. Bu esa navqiron avlodning intellektual, ijodiy va ma'naviy salohiyatini har tomonlama ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/4646908>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3090103>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3334234>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son qarori. <https://lex.uz/docs/4333062>
8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent, 2022. – 98 b.
9. Xodjayev B.X. Pedagog kadrlarning innovatsion salohiyati: tuzilishi va rivojlantirish yo‘llari. – Toshkent, 2021.
10. Musurmonkulova M.M. Pedagogik faoliyatda kreativlikning kasbiy ahamiyati // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2020.
11. Abdusattarova U. Bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari. – Toshkent, 2019.
12. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish: p.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 54 b.